Bichim 148X210, 1G'32. Xajmli ____ bosma taboq
RIZO 3750 apparatida nusxa ko'chirish usulida ___ nusxada bosildi.

Namangan muxandislik qurilish instituti kichik bosmaxonasi,
I.Karimov ko'chasi, 12.



TVM(r)+TVM-22

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQI
O'quv-uslubiy boshqarma
№ 75
«03» 07 2024 y.

«TASDIQLAYMAN»
NamMQI rektori
_______ Sh.Ergashev
2024 yil «03»

# TRANSPORT TIZIMINING HUQUQIY VA ME'YORIY ASOSLARI

## FANINING O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 700000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari |
| **Ta'lim sohasi:** | 710000-Muhandislik ishi |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60712500 - Transport vositalari muxandisligi (avtomobil transporti) |

NAMANGAN – 2024

| Fan/modul kodi<br>TTHMA2305<br>Fan/modul turi<br>Tanlov | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>3 | ECTS-Kreditlar<br>5 |
|---|---|---|---|
| | Ta'lim tili<br>O'zbek/Rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4-5 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Transport tizimining huquqiy va me'yoriy asoslari | 90 (30 m / 60 a) | 60 | 150 |

2 **I. Fanning mazmuni:**

Fanning maqsadi - Fanni o'qitishdan maqsad-iqtisodiyotni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida yuklarni, passajirlarni, maxsulot va zaxiralarni iste'molchilarga o'z vaqtida, kerakli miqdorda yetkazishning mohiyati, uni tashkil etishda transport tizimlarining huquqiy va me'yoriy asoslari boyicha talabalarda amaliy professional bilimini shakllantirishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, transport jarayonlarga huquq va me'yoriy jahatdan yondoshuv, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi, Talaba:

- zamonaviy dunyo transport tizimi, uning turlari, avtomobil transporti huquqi asoslari, yo'lovchilar va yuk tashishni tashkil qilishning asosiy qoidalari, avtomobil transportida xalqaro tashishni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi avtomobil transportining huquqiy asoslari haqida ***muayyan bilimlarga ega bo'lishi***;
- Yevropa Ittifoqining umumiy transport siyosati;
- yuk va yo'lovchilarni avtomobil, temir yo'l va havo transportida tashish shartlarini, yuk va yo'lovchilarni avtomobil, temir yo'l va havo transportida tashishda transport korxonalarini huquq va majburiyatlarini;
- transport xizmatlarini amalga oshirishda halqaro kelishuvlar va konventsiyalar talablarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- Bojxona qonunchiligi, rejimlari va ularning turlari, tovarlar va transport vositalarini chegaradan olib o'tishda bojxona qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik haqida ***tasavvurga ega bo'lishi kerak.***

"Transport tizimining huquqiy va me'yoriy asoslari" fani "Transportda tadbirkorlik asoslari", "Menejment", "Avtotransport korxonasi iqtisodiyoti", "Avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari", "Logistika", "Huquqshunoshlik" kabi bir qator fanlar bilan o'zaro bog'liq hamda uslubiy jihatdan uzviydir.

"Transport tizimining huquqiy va me'yoriy asoslari" fanini o'qitish jarayonida kom'yuter texnologiyasidan, "Lex.uz" O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari bazasidan, "Transport vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlaridan" foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kom'yuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.



**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**
**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1 - modul. Zamonaviy transport tizimi va transportda tashishni boshqarish**

**1-mavzu. Jahon – zamonaviy transport tizimi**
Transport geografiyasi va jahon transport tizimi. Mintaqaviy transport tizimlari. Avtomobil transporti. Temir yo'l transporti. Suv transporti. Ichki suv transporti. Havo transporti. Quvur transporti. Transportning insonlar faoliyati uchun ahamiyati.

**2-mavzu. Transportda tashishni boshqarish va transport tizimining huquqiy va me'yoriy asoslari**
Transport tizimini boshqarishni tashkil etish va huquqiy tartibga solish kontseptsiyasi. Transport xavfsizligi va jamiyat manfaatlarining himoyasi. O'zbekiston Respublikasida transport faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi.

**3-mavzu. Transport huquqining asoslari va manbalari**
Transport huquqi tushunchasi va predmeti. Transport huquqining tarmoq majmuasi tartibida shakllanishi. Transport faoliyatining huquqiy xususiyalari. Transport huquqinig tarkibi va kontseptsiyasi. Transport huquqining manbalari. Transport huquqi va transport qonunchiligi. Transportda qonunchilik tizimi va uning tarkibi. Transport munosabatlarida Hakamlar sudining faoliyati.

**4-mavzu. Transport huquqini boshqa tarmoq huquqlari bilan bog'liqligi**
Transport munosabatlarida ma'muriy huquqning ishtiroki. Transport munosabatlarida fuqarolik huquqning ishtiroki. Transport munosabatlarida muxnat huquqning ishtiroki. Transport munosabatlarida jinoyat huquqning ishtiroki. Transport munosabatlarida xalqaro huquqning ishtiroki. Transport va ekologiya qonunchiligi.

**5-mavzu. Transportda hizmat ko'rsatish shartnomasining huquqiy va me'yoriy asoslari**
Tashish shartnomasining tushunchasi va turlari. Tashish shartnomasini tuzish uchun asos. Yuk tashish shartnomasi. Tashish shartnomasining ishtirokchilari, ularning huquqlari va majburiyatlari. Transport ekspeditsiyasi shartnomalari. Tashish shartnomasini bekor qilish dalillari.

**6-mavzu. Yo'lovchilarga transportda xizmat ko'rsatish va yo'lovchi tashish shartnomasining huquqiy va me'ẻriy asoslari**
Yo'lovchilarga transportda xizmat ko'rsatishni tashkil etish talablari va huquqiy me'yorlari. Yo'lovchilarni tashish shartnomalari, transport xizmatidan foydalanish huquqlari va majburiyatlari. Yo'lovchilarga namunali xizmat ko'rsatishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta'minlashda prokuror nazorati.

**7-mavzu. Transport xizmatlarini tartibga solishda xalqaro kelishuvlar**
Transport xizmatlarini tartibga solishda xalqaro kelishuvlarning tushunchasi va turlari. Yuk tashish bo'yicha halqaro kelishuvlar va konventsiyalar. Avtomobilda xalqaro tashishga doir konventsiyalar. Temir yo'l orqali halqaro tashishga doir konventsiyalar.

Dengiz orqali yuk tashish xalqaro konventsiyalari. Xalqaro havo transportida tashishga doir konventsiyalar. Avtomobillar va tirkamalarni xalqaro yo'nalishlarda xarakatlanishga ruxsat olish.

**8-mavzu. Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda tashish turlari va ularning huquqiy asoslari. Ichki huquqni xalqaro qatnovda qo'llash**

Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda tashishning umumiy qoidalari. Avtomobillarda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashishlarning huquqiy asoslari. Temir yo'l orqali yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashishlarning xuquqiy asoslari. Havo transportida xalqaro tashishlarning xuquqiy asoslari. Aralash qatnovda yuklarni xalqaro tashish. Ichki huquqni halqaro qatnovda qo'llash tushunchasi. Ichki huquqni eksterritorial kuchi. Ichki huquq tomonidan transport shartnomalari normalarining tartibga solinishi. Xalqaro tashishda kollizion normalar masalalarini tartibga solish.

**2 – modul. Transport faoliyatini tashkil etish, tashish jarayonida bojxona nazorati**

**9-mavzu. Transportdagi huquqbuzarliklar va huquqbuzarliklar uchun javobgarlik**

Transportdagi huquqbuzarliklar tushunchasi. Transportdagi huquqbuzarliklar turlari. Transport korxonalarining huquqbuzarliklar uchun huquqiy javobgarlik tushunchasi. Yuk jo'natuvchilar va yukni oluvchilar sodir etgan xuquqbuzarliklari uchun huquqiy javobgarligi. Tashuvchining transport vositasini taqdim etmaganligi va jo'natuvchining taqdim etilgan transport vositasidan foydalanmaganligi uchun javobgarligi. Tashuvchilarning va yuk jo'natuvchilarning yukka yetkazilgan zarar uchun javobgarlik. Tashuvchi yukni vaqtida yetkazmaginligi uchun javobgarlik. Yo'lovchilarning, yuridik va jismoniy shaxslarning transportda sodir etgan xuquqbuzarliklari uchun javobgarlik. Da'vo kiritish tartibi va muddatlari.

**10-mavzu. Haydovchilarning mehnat va dam olishini tashkil etish**

Haydovchilarning mehnat va dam olishini tashkil etishni tartibga soluvchi manbalar. Haydovchilarning mexnat va dam olishni tartibga soluvchi talablar. Xalqaro tashishda Haydovchilarning mexnat va dam olishni tartibga soluvchi talablar. Xalqaro tashishda ishtirok etuvchi transport vositasining ekipaji faoliyatiga tegishli Yevropa kelishuvining tatbiq etilish doirasi. Xalqaro tashishda ishtirok etuvchi transport vositasining ekipaj a'zolariga belgilangan talablar. Haydovchilarning mehnati va dam olishining talablariga rioya etishni nazorat etuvchi uskunalar.

**11-mavzu. Transport faoliyatini litsenziyalash va sug'urtalash**

O'zbekistonda transport xizmatlariga litsenziya berishni xuquqiy tartibga solish. Litsenziyalash talablari va shartlarini bajarilishi ustidan nazorat qilish. Litsenziya olish uchun talab etiladigan xujjatlar. Litsenziya berish uchun davlat boji to'lovi. Xavfli omillarni vujudga kelish holati. Avtotransportda xalqaro tashishda sug'urtalanish zaruriyatining sabablari. Avtotransportda xalqaro tashishda sug'urtalanish turlari.

**12-mavzu. Xalqaro transport tashkilotlari**

Xalqaro transport tashkilotlari turlari va faoliyati. Ixtisoslashtirilgan xalqaro transport tashkilotlari. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi. Avtomobil transportining xalqaro ittifoqi. Ekspeditorlar assotsiatsiyasining xalqaro federatsiyasi. Transport vazirining Yevropa anjumani



(EKMT). Osiyo va Tinch okeani davlatlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy qo'mitasi (ESKATO). O'zbekiston Respublikasining xalqaro transport tashkilotlari faoliyatidagi o'rni.

**13-mavzu. Yevropa Ittifoqining umumiy transport siyosati**

Yevropa ittifoqi (YEI) – davlatlararo uyushma. Yevropa ittifoqi organlari. Yevropa umumiy transport bozorining printsiplari. Yevropa ittifoqi transport siyosati. Yevropa ittifoqi transport huquqining ustuvor yo'nalishlari.

**14-mavzu. Tovarlar va transport vositalarini chegaradan olib o'tishda rasmiylashtiruvi tartibi, bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari**

Tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojhona chegarasi orqali olib o'tilishi tartibi. Yuklarni chegaradan olib o'tishda bojxona nazorati tushunchasi. Tovarlar va transport vositalarini bojhona rasmiylashtiruvining mohiyati. Bojhona rasmiylashtiruvining asosiy printsiplari. Bojhona yuk deklaratsiyasi tushunchasi. Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish va rasmiylashtirish tatribi. Yuklarni chegaradan olib o'tishda bojhona rejimlari va ularni qo'llash shartlari. Bojxona ekspertizasining xuquqiy asoslari.

**15-mavzu. Tovarlar va transport vositalarini chegaradan olib o'tishda qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Chegaradan o'tishda bojhona haqidagi qonun xujjatlarini buzilishi tushunchasi. Chegaradan o'tishda bojhona haqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun beriladigan jazo turlari va jinoiy javobgarlik. Kontrabanda jinoyatining tushunchasi va unig uchun javobgarlik.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yichya ko'rsatma va tavsiyalar**

**1. Jahon zamonaviy transport tizimi. O'zbekiston Respublikasining jahon transport tizimidagi o'rni.**

1.1. Iqtisodning transport tarmogi. Zamonaviy transport tizimi.
1.2. Jahon va mintaqaviy transport tizimlari.
1.3. Zamonaviy avtomobil va temir yo'l transporti.
1.4. Zamonaviy suv va havo transporti.
1.5. O'zbekiston Respublikasining jahon transport tizimidagi o'rni
1.6. Jahon va O'zbekiston Respublikasi transport tizimining rivojlanish istiqbollari. Transportning insonlar faoliyati uchun ahamiyati.

**2. Transportda hizmat ko'rsatish shartnomasining huquqiy va me'yoriy asoslari.**

2.1. Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida transportini boshqarish.
2.2. Temir yo'l transporti, transport aviatsiyasini va avtomobil transportini boshqarish.
2.3. Tashish shartnomasi, tushunchasi va turlari. Tuzish tartibi va tarkibi.

**3. Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda tashish turlari va ularning huquqiy asoslari.**

3.1. Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda tashishning umumiy qoidalari. Xalqaro huquq.
3.2. Xalqaro qatnov turlari va ularning huquqiy asoslari.
3.3. Xalqaro qatnovning o'ziga xos xususiyatlari.

**4. Transport faoliyatini litsenziyalash.**

4.1. Litsenziya: berish shartlari va turlari.
4.2. Avtomobil transportida litsenziyalash.

4.3. Litsenziyalash: madaniy transport xizmati korsatish yo'li sifatida.

**5. Transport faoliyatini sug'urtalash.**

5.1. Bozor munosabatlarini shakllanishida sug'urta.

5.2. Xavfli omillarni vujudga kelish holati.

5.3. Avtotransportda sug'urtalash.

**6. Xalqaro transport tashkilotlari.**

6.1. Xalqaro transport tashkilotlari turlari va faoliyati.

6.2. Ixtisoslashtirilgan xalqaro transport tashkilotlari.

6.3. O'zbekiston Respublikasining xalqaro transport tashkilotlari faoliyatidagi o'rni.

**7. Tovarlar va transport vositalarini chegaradan olib o'tishda rasmiylashtirish tartibi, bojxona rejimlari va ularning turlari.**

7.1. Bojxona va O'zbekiston Respublikasining Davlat bojxona tizimi.

7.2. Bojxona rejimlari, shaklllari va axamiyati.

7.3. Bojxona nazoratining turlari, tartibi va chegaralari.

7.4. Bojxona nazorati ostida tovarlar va transport vositalarini olib o'tishdagi asosiy talablar.

7.5. O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini olib o'tishning huquqiy asoslari.

**8. Tovarlar va transport vositalarini chegaradan olib o'tishda qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.**

8.1. Davlat manfaatlariga qarshi iqtisodiy jinoyatlar.

8.2. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyati.

8.3. Kontrabanda. Bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik va jazo turlari.

8.4. Bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yuritish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'limni tashkil etish shakli va uning tarkibi**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Transport xavfsizligi va jamiyat manfaatlarining himoyasi Transport tizimini boshqarishni tashkil etish.
2. Transport huquqining tarmoq majmuasi tartibida shakllanishi.
3. Transport faoliyatining huququiy xususiyatlari.
4. Tashish shartnomasining tushunchasi va turlari. Yuk tashish shartnomasining tuzish talablari va shakillari.
5. Tashish shartnomasining ishtirokchilari, ularning xuququlari va majburiyatlari.
6. Transport ekspeditsiyasi shartnomalari.
7. Ichki huquni halqaro qatnovda qo'llash tushunchasi.
8. Halqaro tashishda kollizion normalar massalalarini tartibga solish.
9. Transportdagi huquqbuzarliklar turlari.
10. Transport korxonalarining huquqbuzarliklar uchun huquqiy javobgarlik tushunchasi.
11. Yuk jo'natuvchilar va yukni oluvchilarning sodir etgan huquqbuzarliklar uchun huquqiy javobgarligi.
12. Tashuvchining transport vositasini taqdim etmaganligi va jo'natuvchining taqdim etilgan transport vositasidan foydalanmaganligi uchun javobgarlik.
13. Xalqaro transport tashkilotlari turlari va faoliyati.
14. BMT Yevropa iktisodiy komissiyasi faoliyati.
15. Avtomobil transportining halkaro itfoqi faoliyati.
16. Ekspeditorlar assotsiatsiyaning halqaro federatsiyasi faoliyati.
17. Transport vazirlarining Yevropa anjumani (EKMT) faoliyati.
18. Osiyo va Tinch okean davlatlari uchun iqtisodiy va ijtimoyi ko'mitasi.(ESKATO) faoliyati.
19. O'zbekistonda Avtomobil transportida yuk tashuvchilar Milliy uyushmasi (ASMAP) faoliyati
20. O'zbekiston Respublikasining xalqaro transport tashkilotlari faoliyatidagi o'rni.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha tomonidan referatlar/taqdimotlar/testlar/ilmiy jurnallarda chiqishlar qilish tavsiya etiladi.

**Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ishning turli shakllari mavjud bo'lib, unda talabalar o'qituvchi rahbarligida fan bo'yicha yangi bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshira oladi.

Ushbu shakllarga qo'yidagilar kiradi:

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- mavzular bo'yicha testlar yechish;
- mavzular bo'yicha test savollari tuzish;
- taqdimotlar tayyorlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash, referat yozish va himoya qilish;
- talabalarning o'quv-iliy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- masofaviy ta'lim;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalanilgan o'quv mashg'ulotlari;
- o'quv qo'llanmalari yordamida fan mavzularini o'rganish.

**V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompotensiyalari**

3 **Talaba bilishi kerak:**

- ·mavjud transport sohasida, transport tizimiga kiruvchi temir yo'l, havo transporti huquqiy va me'yoriy asoslari, O'zbekiston Respublikasida transport qonunchiligi to'g'risida ***tushunchaga ega bo'lishi***;
- yo'lovchi, yuk, bagaj, pochtalarni tashishning huquqiy asoslari, tashish shartlari, transport turlarida yo'lovchi tashishni tashkil qilishda transport korxonalarining huquq va majburiyatlari haqda ***ko'nikmalar hosil qilishi***;
- xalqaro tashishning huquqiy tartibga solinishi, tashishning iqtisodiy samaradorligi masalalari, transport qonunchiligiga oid chel el tajribasi haqida ***tassavvur hosil qilishi***;
- bojxona qonunchiligi, rasmiylashtiruvi tartibi, bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari, qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik asoslarini ***bilishi lozim.***

4 **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari**

| | |
|---|---|
| | • ma'ruzalar;<br>• interfaol pedagogik texnalogiyalar va grafik organayzerlar;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual ishlamalar;<br>• testlar yechish;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar**<br>Fanda belgilangan o'qitish natijalariga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test ishni topshirish. |
| 6 | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Sarimsaqov A.M. Transport tizimining huquqiy va me'yoriy asoslari. Darslik. - Г.: «Innovatsion rivojlanish nasliriyot-matbaa uyi», 2021 - 400 b.<br>2. Narzullayev K.S. Transport tizimining huquqiy va me'yoriy asoslari. O'quv qo'llanma. 2023 - 220 b.<br>3. Rashidov K. «Xalqaro ko'lamda yo'lovchi va yuk tashishning huquqiy asoslari»,- Darslik, T.: «Adabiyot jamg'armasi», 2001y.,127 b.<br>4. Donald J. Bowersox, David J. Closs, «Logistical Management.The Integrated Supply Chain Process» by The McGraw-Hill Companies. Inc.USA.1996 y., 633 b<br>5. Миротин Л.Б. М.: Транспортная логистика. М.: " Экзамен", 2002г., 512 б.<br>6. Егиазаров И.А. Транспортное право. Учебник.- М., 2005г., 268 б..<br>7. Aliev A. Bojxona organlari faoliyatini boshqarish va zamonaviy infrastruktura. T.: TDIU 2005 y., 186 b.<br>8. Порочин Ю.Б., Алёхина О.В.,"Таможенное дело". Учебное пособие. Саратов, 2010г., 160 б.<br>9. Tursunov S.J. Logistika. O'quv qo'llanma. – T.: 2007.-188 b.<br>10. Matkarimov K.J. Avtotransportda qonunchilik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: 2016.-336 b.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисидаги ПФ-158-сонли фармони. Тошкент ш., 2023 йил 11 сентябрь.<br>2. Mirziyoev SH. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.– T.: O'zbekiston, 2017.<br>3. Samatov G.A., Kamil'djanov B.I., Galimova F.R. Logistik boshqaruv kontseptsiyalari va modellari. T.: «Fan va texnologiya», 2015y., 227 b.<br>4. Boboxodjaev G.N. Bojxona tashkilotlari iqtisodiy faoliyati. T.: TDIU 2005 y., 295 b.<br>5. O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risidagi qonuni.T., "Adolat", 1991 y., 86 b.<br>6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. T., "Adolat", 1996y., 252 b.<br>7. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. T., "Adolat", 2008 y., 202b.<br>8. O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil' transporti» to'g'risidagi qonuni.-T., |



| | |
|---|---|
| | "Adolat", -1999y., 35b.<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. http://www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>2. http://www.license.uz - O'zbekiston Respublikasi litsenziatlari yagona portali.<br>3. http://www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari.<br>4. http://www. isbuk.ru.<br>5. http://www. infostat.ru.<br>6. http://www. businessroc.ru. |
| 7 | **Namangan muhandislik-qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan** |
| 8 | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>K.Narzullayev - NamMQI, Transport logistikasi kafedrasi katta o'qituvshi. |
| 9 | **Taqrizchi(lar):**<br>T.Dadaboyev – NamMQI,"Menejment" kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.<br>N.Abdurasulov – Transport vazirligi Namangan viloyati boshqarmasi bosh mutaxasisi. |